

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA
SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
FAKULTETI**

**QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ta'lim yo'nalishi**

«Umumiy texnika fanlari va HFX» kafedrası

«TASDIQLAYMAN»
«Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash»
fakulteti dekani,
dotsent _____ Abdullaev D.

«Himoyaga ruxsat etaman»
kafedra mudiri, t.f.n.

_____ Mamajonov P.

«___» _____ 2014 yil.

«___» _____ 2014 yil.

***BITIRUV MALAKAVIY
ISHI***

Mavzu: **«Moy nasosi detallarini qayta tiklash texnologiyasi»**

Bitiruvchi:

Qurbonova Maftuna

Rahbari:

assistent Nazarov Sh.

Andijon-2014 yil

ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash fakulteti

Umumiy texnika fanlari va HFX kafedrası

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ta'lim yo'nalishi

4 - bosqich 3- guruh

«TASDIQLAYMAN»

Kafedra mudiri,

t.f.n. _____ Mamajonov P.

«__» _____ 2014 yil.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____ *Qurbonova Maftuna*

(familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi **Moy nasosi detallarini qayta tiklash texnologiyasi**

«23» **dekabr 2013 yildagi №__** Kafedra majlisida ma'qullangan.

«4» **yanvar 2014 yildagi №2-St** raqamli rektorni buyrug'i bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati **05 iyun 2014 yil.**

3. Bitiruv malakaviy ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar: Respublikamiz Prezidenti va xukumati tomonidan mavzuga tegishli qaror va farmonlari. Talabaning institutda o'qishi davomida olgan bilimlari, mavzu bo'yicha kerakli adabiyotlar, bitiruv malakaviy amaliyoti davrida to'plangan ma'lumotlar, internet ma'lumotlari.

4. Hisoblash tuShuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati): Kirish; mavzuning dolzarbligi; adabiyotlar sharxi; asosiy qism; texnologik qism; iqtisodiy qism; hayot faoliyati xavfsizligi qismi; xulosa va takliflar; foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati; Ilovalar.

5. Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi: Dvigatel, moy nasosining umumiy tuzilishi; Yon zazorning nasos ish unumiga ta'siri; Moy nasosidagi nosozliklar va ularni bartaraf etish usullari; Moy nasosini tiklashning texnologik jarayoni; Moy nasosini tiklash texnologik jarayoni xaritasi, Ishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari

6. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha maslaxatchi (lar):

№	Bo'lim mavzusi	Maslaxatchi o'qituvchi f.i.sh.	Imzo	Sana
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	<i>Umumiy qism</i>	<i>dots. Qosimov K.</i>		
2	<i>Texnologik qism</i>	<i>dots. Qosimov K.</i>		
3	<i>Konstruktorlik qism</i>	<i>dots. Qosimov K.</i>		
4	<i>Tashkiliy qism</i>	<i>dots. Qosimov K.</i>		
5	<i>HFX va fuqarolar mudofaasi</i>	<i>Yuldashev A.</i>		
6	<i>Tabiat muxofazasi</i>	<i>dots. Qosimov K.</i>		
7	<i>Iqtisodiy qism</i>	<i>dots. Qosimov K.</i>		
8	<i>Xulosalar</i>	<i>dots. Qosimov K.</i>		

7. Bitiruv malakaviy ishini bajarish rejasi.

№	Bitiruv malakaviy ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tkanlik belgisi
1	<i>Kirish, Mavzuning dolzarbligi</i>	<i>14.01.2014 yil</i>	
2	<i>Adabiyotlar sharxi</i>	<i>04.02.2014 yil</i>	
3	<i>Asosiy qism</i>		
4	<i>Texnologik qism</i>	<i>03.03.2014 yil</i>	
5	<i>Ishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari</i>	<i>19.05.2014 yil</i>	
6	<i>Hayot faoliyati xavfsizligi qismi</i>	<i>31.05.2014 yil</i>	
7	<i>CHizma grafik qismi</i>	<i>07.06.2014 yil</i>	
8	<i>Yakuniy qism</i>	<i>11.06.2014 yil</i>	

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____
(imzo)

assitent Nazarov SH.
(Familiya, ismi, sharifi)

Topshiriqni bajarishga oldim: _____
(imzo) (Familiya, ismi, sharifi)

Qurbonov M.

Topshiriq berilgan vaqti: «26» dekabr 2013 yil.

MUNDARIJA

1. Kirish.....	5
2. MAVZUNING DOLZARBLIGI.....	7
3. ADABIYOTLAR SHARHI.....	10
4. ASOSIY QISM.....	14
4.1 Dvigatellarning moylash sistemalarining klassifikatsiyasi	14
4.2 Dvigatellarning moylash tizimi.....	15
4.3 Moy nasoslarining tuzilishi.....	18
5. TEXNOLOGIK QISM.....	22
6. IQTISODIY QISM.....	31
7. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI	36
8. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	40
9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	42
10. ILOVALAR.....	45

KIRISH

Respublikamizda xalq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida davlatimiz tomonidan samarali islohotlar o'tkazib kelinmoqda. Bunda Prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning **«2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi» deb nomlangan** «Mamlakatimizni 20130yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2014 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlari»ga bag'ishlangan 2014 yil 17 yanvardagi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida, hamda qator Davlat dasturlarida va Prezidentimiz qarorlarida ko'zda tutilgan yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, asosiy yetakchi sohalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirish, xo'jalik yuritishning barcha tarmoqlarida mehnat, energiya, xom-ashyo va materiallar, jihozlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanish, noishlab chiqarish harajatlarini bartaraf etish kabi mavjud resurslardan unumli foydalanishga qaratilgan tadbirlarni ro'yobga chiqarish xalq xo'jaligini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [1,2].

Amalga oshirilayotgan **islohotlar va tadbirlarning** natijasida mamlakatimiz jadal rivojlanib bormoqda. Buni mustaqilligimizning o'tgan yigirma yili davomida mamlakatimizda ro'y bergan ijtimoiy va iqtisodiy ma'naviy va ma'rifiy o'zgarishlarda ko'rish mumkin.

Iqtisodiyotni turg'un rivojlanib borishida ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlanganligi yetakchi hisoblanadi. Shu maqsadda respublikamizda yangi va zamonaviy mashina va mexanizmlar ishlab chiqarish tobora keng yo'lga qo'yilmoqda.

Respublikamiz xalq xo'jaligi va aholisini avtotransportga bo'lgan talabini qondirish borasida olib borilayotgan ulkan ishlarga qaramasdan unga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirishning imkoni yo'q. Shu sababli ishlab chiqarilganiga 10-15

yil bo'lgan, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari pastlab ketgan, ma'naviy eskirgan avtotransportlardan hali ham foydalanib kelinmoqda. Bunday mashinalarda turli xil nosozliklar yangisiga nisbatan ancha ko'p sodir bo'ladi. Bu esa ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tizimini yo'lga qo'yish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, tannarxini kamaytirish kabi choralarni ko'rib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki traktor va avtomobillarning asosiy energiya manbai dvigateli hisoblanadi. Dvigatelning ishonchliligi ko'proq moylash tizimiga kiruvchi birikmalarning ishga yaroqliligiga va qo'llanilayotgan moyning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Dvigatelning detallarining katta yuklanishlarda ishqalanib ishlashi ularning yeyilishiga va qizishiga olib keladi. Shuning uchun dvigatelning ishqalanuvchi detalning yuzalariga uzluksiz ravishda moy yuborib turish zarur, Bu vazifani dvigatellarda moylash tarmog'i bajaradi.

Moylash tarmog'i dvigatelning ishqalanuvchi detallariga moy uzatib, ularning ishqalanishini kamaytiradi, uning detallarini ishqalanuvchi sirtlarini qisman sovitadi, ishqalanuvchi yuzalardagi kirlarni va yeyilish zarrachalarini yuvadi hamda moyni tozalab beradi.

Olimlar moy nasoslarini dvigatellarning yuragi deyishadi. Insonlardagi kabi uning har qanday oz vaqtga bo'lsa ham to'xtab qolishi juda og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Moy nasoslarining ishlash mexanizmi juda oddiy bo'lib, unda korpus ichidagi ikki bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi shesternyalar kerakli moy bosimini ta'minlaydi. Ammo uning ishonchliligi qo'yilgan talab darajasida emas.

Shuning uchun ushbu ishimizning asosiy maqsadi moylash tarmog'ining ishonchliligini oshirish maqsadida moy nasoslarida yuzaga keladigan nosozliklarni bartaraf etish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat

2. MAVZUNING DOLZARBLIGI

O'zbekiston Respublikasi mustaqil bo'lgan kundan boshlab jadal rivojlanish, davlat va ijtimoiy hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirish, bozor munosabatiga o'ziga xos yo'ldan va bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini tutdi.

Xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari faoliyati yangi bosqichga o'tishni o'zaro manfaatdorlik, tashqi iqtisodiy aloqalar asosida qurmoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarning jadal rivojlanayotgan. Shu davrida respublikamizda avtotransport sohasining tarakkiyoti muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Davlatimiz rahbariyati va Prezidentimiz avtomobilsozlikni rivojlantirish va transportdan samarali foydalanish masalalariga katta e'tibor bermoqdalar.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda respublikamiz qishloq xo'jaligini texnik va texnologik ta'minlashga ham aloxida e'tibor qaratilmoqda. Buning isbotini Prezidentimizning 2014 yil 15 maydagi "Qishloq xo'jaligining mashinasozlik korxonalarini boshqarishni yanada takomillashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham ko'rishimiz mumkin.

Amalga oshirilayotgan **islohotlar va tadbirlarning** natijasida mamlakatimiz jadal rivojlanib bormoqda. Buni mustaqilligimizning o'tgan yigirma yili davomida mamlakatimizda ro'y bergan ijtimoiy va iqtisodiy ma'naviy va ma'rifiy o'zgarishlarda ko'rish mumkin.

Iqtisodiyotni turg'un rivojlanib borishida ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlanganligi yetakchi hisoblanadi. Shu maqsadda respublikamizda yangi va zamonaviy mashina va mexanizmlar ishlab chiqarish tobora keng yo'lga qo'yilmoqda.

Mavjud texnikalarni ishlatish jarayonida ular va ularning detal va agregatlari turli omillar ta'sirida sekin asta ishdan chiqa boshlaydi. Bu esa o'z navbatida xalq xo'jaligida amalga oshirilayotgan ishlarning muntazamligiga putur yetkazadi. Shuning uchun texnikalarning tez ishdan chiqishini oldini olish zarur

bo'ladi. Texnikalarning ishdan chiqishlarini oldini olish maqsadida ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tizimi yo'lga qo'yiladi.

Shulardan kelib chiqib mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan mavjud texnikalarning mantazam ishlashini ta'minlashda ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarining ahamiyati beqiyosdir.

Respublikamiz xalq xo'jaligi va aholisini texnik vositalarga bo'lgan talabini qondirish borasida olib borilayotgan ulkan ishlarga qaramasdan unga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirishning imkoni yo'q. Shu sababli ishlab chiqarilganiga 10-15 yil bo'lgan, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari pastlab ketgan, ma'naviy eskirgan texnikalardan hali ham foydalanib kelinmoqda. Bunday mashinalarda turli xil nosozliklar yangisiga nisbatan ancha ko'p sodir bo'ladi. Bu esa ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash tizimini yo'lga qo'yish, ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish, tannarxini kamaytirish kabi choralarni ko'rib borishni taqozo etadi.

Ma'lumki traktor va avtomobillarning asosiy energiya manbai dvigateli hisoblanadi. Dvigatelning ishonchliligi ko'proq moylash tizimiga kiruvchi birikmalarning ishga yaroqliligiga va qo'llanilayotgan moyning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Dvigatelning detallarining katta yuklanishlarda ishqalanib ishlashi ularning yeyilishiga va qizishiga olib keladi. Shuning uchun dvigatelning ishqalanuvchi detalning yuzalariga uzluksiz ravishda moy yuborib turish zarur, Bu vazifani dvigatellarda moylash tarmog'i bajaradi.

Moylash tarmog'i dvigatelning ishqalanuvchi detallariga moy uzatib, ularning ishqalanishini kamaytiradi, uning detallarini ishqalanuvchi sirtlarini qisman sovitadi, ishqalanuvchi yuzalardagi kirlarni va yeyilish zarrachalarini yuvadi hamda moyni tozalab beradi.

Olimlar moy nasoslarini dvigatellarning yuragi deyishadi. Insonlardagi kabi uning har qanday oz vaqtga bo'lsa ham to'xtab qolishi juda og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin. Moy nasoslarining ishlash mexanizmi juda oddiy bo'lib, unda

korpus ichidagi ikki bir-biriga qarama-qarshi aylanuvchi shesternyalar kerakli moy bosimini ta'minlaydi. Ammo uning ishonchliligi qo'yilgan talab darajasida emas.

Shuning uchun moy nasoslarining ishdan chiqish sabablarini aniqlash va ularning ishonchliligini ta'minlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ushbu mavzuning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 15 maydagi "Qishloq xo'jaligi texnikalaridan foydalanish, ta'mirlash va ularga servis xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy uslublari va texnologiyalarini joriy etish" masalalari ko'zda tutilgan "Qishloq xo'jaligining mashinasozlik korxonalarini boshqarishni yanada takomillashtirish va moliyaviy sog'lomlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida o'z aksini topgan.

3. ADABIYOTLAR SHARHI

Babusenko avtotraktorlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarining ahamiyati haqida „Traktor va avtomobillar remonti“ darsligida „Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni remont qilish sistemasi detallarning ko'p va erta yeyilishi, hamda boshqa yemirilishining oldini olish, Shuningdek mashinalarning butun ishlatish davrida normal texnik holatini va yuqori unumli tejamli ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi“ deyilgan.

Akademik Yuldashev esa, o'zining „Mashinalarning ishonchliligi va ta'mirlash asoslari“ nomli kitobida mashinalarning ishdan chiqish sabablari haqida to'xtalib Shunday degan: Mashinalarda yuzaga keladigan nosozliklarga detallarida turli xil nuqsonlar paydo bo'lishi va ularning yeyilishi sabab bo'ladi. Ushbu sabablar ichida detallarning yeyilishi yetakchi hisoblanadi. Shuning uchun mashinalarni ishdan chiqishining oldini olishga nosozlikka olib keluvchi detallarni o'z vaqtida almashtirish yoki ularning yeyilishga chidamliligini oshirish orqali erishish mumkin. Ta'mirlash ishlarining tannarxi va unga sarflanadigan mehnat, material, energiya resurslarining o'zaro bir-biriga bog'liqligini hisobga olganda ularning yildan-yilga ortib borishi xalq xo'jaligi uchun juda zararlidir.

Texnik vositalardan foydalanib yangi maxsulot ishlab chiqarishga qaraganda ta'mirlash ishlari va ta'mirlashlararo texnik xizmat ko'rsatishlarga sarflanadigan xarajatlar ancha ko'p. Mashinasozlikda bu xarajatlar yiliga mashina narxiga nisbatan 25% gachani tashkil etadi. Juda qiyin sharoitda ishlaydigan mashinalarni kapital ta'mirlash uchun sarflanadigan xarajatlar yiliga 50% gacha yetadi.

Mashxur rus akademigi Selivanov mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ehtiyojining vujudga kelish sabablariga to'xtalib quyidagilarni ta'kidlagan: „Ammo, real sharoitni taxlil qilib Shu narsani tan olish kerakki, u hox kosmik izlanishlarda qo'llaniladigan qisqa muddat foydalaniladigan apparat kabi bo'lsin, yoki hox qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi va sanoatning boshqa sohalariga xizmat ko'rsatadigan uzoq muddat foydalanishga mo'ljallangan mashina bo'lsin, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlariga talab zamonaviy mashinalarning konstruksiyasining o'zida mavjud“.

Shunday qilib, yangi va ta'mirlangan texnikalarning ishonchliligi va resursini oshirish borasida qilinayotgan xarajatlarning qanchalik katta bo'lsin, ular bugungi kun talabiga javob bermayapti. Umuman olganda traktorlarning ta'mirlashda turib qolishi o'rtacha - 30% ni, avtomobillar esa - 40% ni tashkil etib katta qo'shimcha xarajatlarga olib kelmoqda.

Mashinalarni ta'mirlash tannaxining katta qismini ehtiyot qismlar sotib olishga ketgan xarajatlarning tashkil etadi. Qishloq xo'jalik va melioratsiya mashinalarini kapital ta'mirlash tannaxining 50...60% ini yangi ehtiyot qismlar tashkil etadi.

Taniqli olimlar mashinalarni ishdan chiqishining asosiy sabablariga baho berishda bir to'xtamga kelganlar. I.V.Kragelskiy, M.N.Dobichin, V.S.Kombalovlarning asarida mashinalar ishdan chiqishining asosiy sababi sinish emas, balki, qo'zg'aluvchi birikma va ishchi organlarning ishqalanish natijasida yeyilishi ekanligi aytilgan. A.I.Degtyarov, A.S.Pronikov va D.N Reshetovlar ham detallarning ishqalanish natijasida yeyilishi ko'pgina mashina va mexanizmlarda eng ko'p uchraydigan nosozliklar turiga kirishi haqida xulosa berishgan.

Professor M.M.Tenenbaum o'z monografiyasida ko'rsatadiki: «Detallarning yuqori yeyilishga chidamliligi mashinalarning ishonchli ishlashi va ulardan foydalanishda maksimal iqtisodiy samara olishning zarur shartlaridan biridir, chunki aynan yeyilish oqibatida mashinalarning ko'pgina (80...90%) harakatlanuvchi elementlari va ishchi organlari ishga yaroqliligini yo'qotadi».

Yuqorida keltirilganlardan, aksariyat mashinalar xizmat muddati va ishonchliligining pastligi, mashinalarni bekor turib qolishi va ularni ta'mirlashning zarurligi, mashinalarning ehtiyot qismlarga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi, birinchi navbatda, zamonaviy mashinalarni tashkil etuvchi detallarning yeyilishga chidamliligining yetarli emasligi hisoblanadi. Shuning uchun, mashinalarning xizmat muddatini oshirishning eng samarali yo'nalishlaridan biri - ushbu mashinalarni tashkil etuvchi detallarning yeyilishga chidamliligini oshirish hisoblanadi.

Ichki yonuv dvigatellari bugungi kun mashinalarini harakatlantiruvchi asosiy yuritma hisoblanadi. Avtotraktor dvigatellari detallarining yeyilishi masalasida ham ayniqsa ko'p asarlar yozilgan. Ularda keltirilgan e'tiborga molik xulosalar quyidagilardan iborat: «Avtomobillar, ayniqsa, traktor dvigatellari ko'pgina asosiy detallarining yeyilishi abraziv xususiyatga ega». «Dvigatellarning har qayday ish sharoitida ham abraziv yeyilish eng ko'p uchraydigan tur hisoblanadi». «Dvigatellarning barcha asosiy detallarida abraziv yeyilish kuzatiladi».

Dvigatel moyi tarkibiga 25...50 g abraziv Changi qo'shib qo'yilsa, dvigatelning ko'p detallari 25...100 soat ishlashdayoq yeyilishning chegaraviy qiymatiga yetadi. Dvigatelni stendda sinash chog'ida abraziv Changini havo bilan birga 40 g va moy orqali 20 g qo'shib qo'yilsa, 50 soat davomidagi detallarning yeyilish miqdori dala sharoitda 1900 soat ishlash davomidagi yeyilishga teng bo'ladi. Tuproqning turi va strukturasiga qarab havodagi Chang tarkibida 65...98% kvarts bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, nosoz havo filtri bilan ishlash oqibatida dvigatel tsilindrining yeyilish tezligi 5 marta ortib ketgan.

U.Ikromov va M.A.Levitinlar respublikamiz iqlim sharoitidan kelib chiqib quyidagi ma'lumotlarni berishgan.

Havoning yuqori Changlanganligi birikmalarning yeyilish jadalligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chang tarkibidagi 82% gacha bo'lgan kvarts zarrachalari yuqori qattqlikka egaligi sababli ishqalanuvchi detallarni abraziv yeyilishiga olib keladi. Yozda havoning Changlanganlik darajasi $1500...2000 \text{ mg/m}^3$ va undan ortiqni tashkil etadi. Chang zarrachalarining o'lchamlari 0,006 dan 0,6 mm gacha bo'lgan keng oralikda bo'ladi. Havo va tuproqdagi abraziv zarrachalar yonilg'i, moylash materiali va ishchi muhit orqali yonilg'i bakiga, karterga, tsilindrlarga va turli tutashmalar orasiga kerib qoladi. Havo tozalagichlar har qancha yaxshi ishlamasin, ular 98...99% gacha Changni ushlab qoladi holos, juda mayda Changlar havo bilan birga dvigatelga kirib ketadi. Yuqori Changlangan muhitda ishlayotgan dvigatelning podshipnigidagi zazor toza havodagiga qaraganda 9...10 marta tez ortib boradi. Yaxshi tozalanmagan havo orqali tsilindrga kirib qolgan abraziv

zarrachalar karterga o'tib moyini ifloslaydi va natijada tirsakli valning ishqalanish yuzalarining yeyilishi 8...10 marta jadallashadi.

Shunday qilib, bugungi kunda detallarni abraziv yeyilishiga olib keluvchi Changdan qutulishning iloji yo'q degan xulosaga kelish mumkin.

Dvigiteklarning abraziv yeyilishiga yoqilg'i va moylash materiallari tarkibidagi begona element va qo'shimchalar ham sababchi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga turli tuzlar, kuyindi, yeyilish maxsuloti va qirindilar ham ishqalanish va issiqlik ta'sirida struktura o'zgarishlariga uchrab, abraziv yeyilish sababchisiga aylanadilar.

Gidroabraziv yeyilish sharoitida ishlovchi detallarni o'rganish maqsadida NSH turidagi gidronasoslar tanlab olindi. Ushbu nasoslarning shesternyalari 16 MPa bosim ostida ishlaydi va tishining balandligi bo'yicha yeyilish miqdori 100 mkmdan ortishi bilan uning ish unumi keskin kamayib keta boshlaydi. Shuning uchun ham ekskavator va pogruzchiklar gidronasoslarining xizmat muddati 500...800 motosoatni tashkil etadi xolos. Yaqin vaqtgacha gidronasoslar shesternyalari tishining balandligi bo'yicha qayta tiklanmagan. Ayni vaqtda zamonaviy yuqori quvvatli mashinalarning har birida 10 va undan ortiq nasoslar mavjud bo'lib, ular mashinaning ish unumiga katta ta'sir ko'rsatishadi va Shuning uchun ham nasoslarning xizmat muddatini oshirish katta ahamiyat kasb etadi.

I.S.Levitskiy taxriri ostida tayyorlangan „Texnologiya remonta mashin i oborudovaniya“ nomli darsligida moylash tizimining ahamiyati quyidagicha izohlangan: „Dvigatelning ishonchliligi ko'proq moylash tizimiga kiruvchi birikmalarning ishga yaroqliligiga va qo'llanilayotgan moyning sifatiga bog'liq bo'ladi“.

Gurevich va Sorokinlar dvigiteklarning moylash tizimini insonning yuragiga o'xshatishgan. Uning ishonchliligi kelib chiqishi mumkin bo'lgan og'ir oqibatlarining oldini oladi deyilgan.

Adabiyotlar taxlili ko'rsatib turibdiki, avtotraktorlarning ishonchliligiga, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlariga sarflanadigan harajatlarga moylash tizimi detallarining texnik holati katta ta'sir etishi mumkin ekan.

4. ASOSIY QISM

4.1. Dvigatellarning moylash sistemalarining klassifikatsiyasi

Dvigatelning detallarining ishqalanadigan sirtlariga ma'lum temperatura va ma'lum bosim ostida kerakli miqdorda moy uzatish uchun xizmat qiladigan qurilmalar to'plamiga dvigatelning moylash sistemasi deyiladi.

Dvigatelning detallarining ishqalanadigan sirtlariga beriladigan moy miqdori va uni yuborish usuli ish sharoitiga: nagruzkaga, temperaturaga va sirtlarning bir-biriga nisbatan siljish tezligiga bog'liq bo'ladi. Moy yuborishning uch xil usuli farq qilinadi: 1) sachratib berish; 2) bosim ostida uzluksiz uzatish; 3) bosim ostida davriy (pulsatsiya bilan) uzatish. Detallarning ishqalanadigan sirtlariga moy yuborish usuliga ko'ra moylash sistemalari uch tipga bo'linadi: 1) sachratib moylash sistemasi; 2) bosim ostida (majburiy) uzatib moylash sistemasi va 3) kombinirlangan moylash sistemasi.

Sachratib moylashda karterga quyilgan moy ishlayotgan dvigatelning harakatlanayotgan detallari yordamida ishqalanuvchi sirtlarga mayda tomchi holida sachratiladi. Bu moylash sistemasi tuzilishi jihatidan sodda, lekin uning quyidagi muhim kamchiliklari bor: moy sathining pasayishi va tirsakli val aylanishlari chastotasining kichiklashishi bilan moylanish intensivligi kamayadi; traktor va avtomobilning tepaga ko'tarilganida, nishablikdan tushayotganida yoki yoniga qiyshayib (yon nishablikdan) harakatlanganida karteridagi moy bir tomonga oqadi (to'planadi), natijada dvigatelning ayrim detallari yaxshi moylanmaydi; moy tsirkulyatsiyasi aniq yo'nalgan harakatga ega emas, Shu sababli moyni tozalash uchun fil'tr qo'yish mumkin emas. Bunday moylash sistemasi keng tarqalmagan (fakat P-23M markali yurgizib yuborish dvigatellarida ishlatiladi).

Ko'pchilik avtotraktor dvigatellarida **kombinirlangan moylash sistemasi** ishlatiladi. Ko'ppoq zo'riqib ishlaydigan detallar (masalan, tirsakli valning o'zak va shatun podshipniklari, taqsimlash valining podshipniklari) ga moy bosim ostida

beriladi. Qolgan detallar dvigatel ishlaganida uning ichki bo'shlig'ida sachrayotgan moy hisobiga moylanadi.

Kombinirlangan moylash sistemasi moyni tozalash va sovitish qurilmalarini o'z ichiga oladi. Bu moy isrofini kamaytirishga va dvigatel detallarining kamroq yeyilishiga yordam beradi.

Yoqilg'i nasosi, regulyator, ventilyator, suv nasosi va yurgizib yuborish mexanizmlari sistemasi detallarning ishqalanadigan sirtlarini moylaydigan alohida qurilma bilan jihozlangan. Dvigatelning barcha ishqalanadigan detallarini bosim ostida moylash konstruktiv jihatdan murakkabligi sababli tatbiq qilinmaydi.

4.2. Dvigatellarning moylash tizimi.

Moylash tarmog'i dvigatelning ishqalanuvchi detallariga moy uzatib, ularning ishqalanishini kamaytiradi, uning detallarini ishqalanuvchi sirtlarini qisman sovitadi, ishqalanuvchi yuzalardagi kirlarni va yeyilish zarrachalarini yuvadi hamda moyni tozalab beradi.

GAZ-53 dvigateli moylash tizimida moy moy qabullagich va trubka orqali moy nasosining asosiy (yuqori) sektsiyasiga so'riladi. Moy bu sektsiyadan blok-karterdagi kanal bo'ylab taqsimlash validan bir oz yuqoridan o'tgan asosiy moy magistraliga tushadi. Asosiy moy magistralidan moy tirsakli valning o'zak podshipniklariga va taqsimlash vali vtulkalariga keladi. O'zak bo'yinlaridan o'tib tirsakli valdagi kanallar orqali shatun bo'yinlari bo'shlig'iga tushadi, ulardan esa shatun podipniklariga boradi.

Taksimlash valining ikkinchi va to'rtinchi vtulkalaridan moy tsilindrlar kallagidagi kanallardan pul'satsiya oqimi bilan koromislone g'ovak o'qlariga va so'ngra o'qlardagi teshiklar orqali koromislo kanallariga o'tadi, bu yerdan rostlash vintlaridagi parmalangan teshiklar orqali shtanganing yuqori uchliklariga boradi. Taqsimlash valining ikkinchi va to'rtinchi bo'yinlarida ikkitadan kanavka bor. Kanavka blok-karterdagi teshikni kanal bilan tutashtirganida asosiy moy magistralidan moy kanal, kanavka va yana bir kanal orqali tsilindrlar kallagidagi kanallarga tushadi.

Uzgich-taqsimlagichning yuritmasi taqsimlash valining beshinchi bo'yni bilan uning vtulkasi orasidagi zazordan, blok-karterdagi kanal, bo'shliq va yuritma korpusidagi teshik orqali kelgan moy bilan moylaydi.


Dvigatelning qolgan barcha detallari sachratib moylanadi.

Nasosning qo'shimcha (pastki) sektsiyasi blok-karterdagi moy magistrali va trubka orqali moyni tsentrifugaga haydaydi. TSentrifugada tozalangan moy karter tubiga to'kiladi va yo'l-yo'lakay taqsimlash shesternyasini moylaydi.

Dvigatelъ katta nagruzka bilan yoki 20°S dan yuqori temperaturada ishlaganida moyni sovitish maqsadida kran bilan radiator ulanadi. Moy radiatoriga asosiy moy magistralidan 0,1 MPa bosimda ochiladigan saqlagich klapani orqali keladi. Moy radiatoridan shlang orqali karter tubiga qo'yiladi. Moylash sistemasida bosim 0,1 MPa dan sal pastga tushganda klapan hatto kran ochiq bo'lsa ham avtomatik yopiladi va moyni radiatorga o'tkazmaydi.

Moylash sistemasida avtomatik ishlaydigan ikkita reduksion klapan mavjud. Qo'shimcha sektsiya klapani tsentrifugaga beriladigan moy bosimini 0,45 MPa dan ortib ketmaydigan qilib cheklab turishga mo'ljallangan. Ortiqcha bosimda ortiqcha moy qo'shimcha sektsiyaning bo'shlig'idan nasosning so'ruvchi bo'shlig'iga o'tadi. Asosiy moy magistrali klapani 0,4 MPa bosimga rostlangan. Yuqori bosimda klapan ochiladi va moyning bir qismi karter tubiga quyiladi.

Moylash sistemasidagi moyning minimal bosimini kontrol qilish uchun asboblari panelida signal lampasi o'rnatilgan bo'lib, u bosim tushganida (0,04—0,07 MPa) yonadi.



a — moylash sxemasi; 6 — gaz taqsimlash mexanizmini moylash uchun tsilindrlarning o'ng kallagiga moy uzatish sxemasi (taqsimlash valining ikkinchi bo'ynidagi kesik); v — o't oldirishning uzgich-taqsimlagichi yuritmasiga moy uzatish sxemasi; 1 - radiator; 2 - moy radiatorining ochish va yopish krani; 3 — saqlagich klapan; 4 — koromislo o'qidagi kovak; 5 — tsentrifuga; 6 — tsilindrlar kallagiga moy uzatish uchun blok-karterdagi kanal; 7 — bosh moy magistrali; 8 — tsentrifugaga boradigan moy magistrali; 9 — moy nasosining asosiy sektsiyasi; 10 — moy nasosining qo'shimcha sektsiyasi; 11 - moy nasosi qo'shimcha sektsiyasi reduksion klapani; 12 — trubka; 13 — moy qabullagich; 14 — karter poddoni; 15 — shatun bo'ynidagi kovak; 16 — tirsakli valga boradigan kanal, 17 — trubka; 18 — bosh moy magistraliniig reduksion klapani; 19 — moy radiatoridan moy to'kish shlangi; 20 — teshik; 21, 26 — blok-karterdagi kanallar; 22 — taqsimlash vali bo'ynidagi kanavka; 23 — vtulka; 24 — taqsimlash valining bo'yni; 25 — uzgich-taqsimlagich yuritmasi korpusidagi teshik; 27 — kovak.

1-rasm. GAZ-53 avtomobili dvigateli moylash tizimining sxemasi

4.3. Moy nasoslarining tuzilishi

Moy nasoslari konstruktsiyasi va tashqi tuzilishi bo'yicha xilma-xil bo'ladi. Nasoslar ishlash jarayoni, xarakatni uzatilishi va korpusining tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladi. Qo'llanish maqsadidan kelib chiqqan holda moy nasoslari joylashtirish o'rniga va quvvatiga qarab ishlab chiqariladi.

Moy nasoslarining konstruktsiyasi bo'yicha quyidagi turlari keng tarqalgan:

- Tishli nasoslar,
- SHesternyali nasoslar,
- Rotorli nasoslar.

Tishli nasoslarda moyni uzatish ikki tishli g'ildiraklarning aylanma harakati evaziga uning tishlari va devorlari orasida amalga oshiriladi. Tishlar va nasos devori orasidagi moy yuqoriga ko'tariladi. Bir-biriga qarama – qarshi aylanishdagi tishlar ilashish nuqtasida moyni pastga o'tishiga to'sqinlik qiladi. Buning natijasida nasosning yuqori qismida yuqori bosimli zona, pastida esa past bosimli zona hosil bo'ladi. Shunday qilib yuqori bosimli zonadagi moy trubalar orqali moylash tizimiga tarqaydi, past bosimli zonaga esa moy so'riladi.


Moy nasoslari dvigatelning moylash sistemasiga moy haydash uchun xizmat qiladi. Avtotraktor dvigatellarida shesternyali moy nasoslari ishlatiladi. Ishlash printsipli jihatdan ular shesternyali haydash pompalaridan farq qilmaydi.

SMD-14 dizelining moy nasosi blok-karter pastki tekisligi flanetsiga mahkamlanadi. Valikga (2- rasm) yetakchi shesternya presslangan, yuritma shesternyasi unga shponka bilan birlashtirilgan. Yetaklanuvchan shesternya o'qda erkin aylanadi. Yetakchi va yetaklanuvchan shesternyalar korpusga joylashgan. Korpusning teshigiga reduksion klapanli moy haydash o'tkazgichining shtutseri burab qo'yiladi. Moy haydash o'tkazgichining bosimi 0,7—0,8 MPa dan yuqori bo'lganda klapan plunjeri prujina qarshiligini yengib, teshikni ochadi va moyning bir qismi karter poddoniga quyiladi. Teshikga moy qabullagichli (2-rasmga qarang) moy olish trubasi ulangan. Moy qabullagich filtrlash to'ri bilan ta'minlangan.

Bir juft shesternyali moy nasosi bir sektsiyali moy nasosi deyiladi. Bunday nasoslar ko'pchilik dvigatellarda ishlatiladi va tuzilishlari hamda ishlashi jihatidan yuqorida ko'rib o'tilgan nasosdan kam farq qiladi.

Ikki sektsiyali nasoslar (masalan, YaMZ, A-01M, GAZ-53, ZIL-130 dvigatellarida) va uch sektsiyali nasoslar ham (D-160 dizelida) ishlatiladi.

Traktor dizellari moy nasoslari tirsakli val shesternyasi yordamida aylantiriladi, avtomobil karbyuratorli dvigatellarida esa taqsimlash valiga ishlangan shesternya yordamida aylantiriladi.




1-korpus; 2-yuritma shesternyasi; 3-kojux; 4-korpus qopqog'i; 5-etakchi shesternya; 6-etaklanuvchi shesternya; 7-valik; 8-o'q; 9 va 10-teshiklar; 11-shtutser; 12-plunjer; 13- prujina; 14-rostlash vinti; 15-oqish teshigi.

2-rasm. SMD-14 dizelining moy nasosi.

GAZ-53 dvigateling moy nasosi (3-rasm,a,b) blok-karter tashqarisiga o'rnatilgan va unga ikkita shpilka bilan mahkamlangan. Nasos yuritmasi taqsimlash validagi spiral tishli bir juft shesternya yordamida maxsus to'rt qirrali valikdan aylantiriladi, to'rt qirrali valikning pastki uchi nasosning yetakchi

valigidagi to'rtburchak teshikka kirib turadi. Korpus alyuminiy qotishmasidan yasalgan va cho'yan plastina bilan ajratilgan. Shesternyalar seksiyasi — tsilindrik, to'g'ri tishlidir. Asosiy seksiyaning yetakchi shesternyasi valikga shtift bilan mahkamlangan, qo'shimcha seksiyaning yetakchi shesternyasi esa shponka bilan mahkamlangan. Asosiy seksiyaning yetakchi shesternyasi o'qda erkin aylanadi, qo'shimcha seksiyaning yetaklanuvchi shesternyasi o'qda erkin aylanadi. Ikkala o'q ham korpusga presslangan. Korpusda plunjer, prujina va qistirmali tiqindan iborat reduksion klapan joylashgan. Boshqa dvigatellarning ikki seksiyali moy nasoslari konstruksiyasi va ishlash printsiplari jihatidan GAZ-53 dvigateli nasosining konstruksiyasi va ishlash printsipidan kam farq qiladi.



a — yig'ilgan moy nasosi; b — moy nasosi detallari:
 1—asosiy (ustki) sektsiya yetakchi shesternyasi; 2—etakchi valik;
 3— asosiy sektsiya korpusi; 4 - asosiy sektsiya yetaklanuvchi shesternyasining o'qi; 5—asosiy sektsiya yetaklanuvchi shesternyasi;
 6, 11 — qistirmalar; 7 — plastina; 8 — qo'shimcha (pastki) sektsiya yetakchi shesternyasi; 9 — qo'shimcha sektsiya korpusi; 10 — tiqin;
 12 — prujina; 13 — plunjer; 14— qo'shimcha sektsiya yetaklanuvchi shesternyasining o'qi; 15 — qo'shimcha sektsiya yetaklanuvchi shesternyasi.


3- rasm. GAZ- 53 dvigateling moy nasosi:

5. TEXNOLOGIK QISM

5.1. Moy nasoslarini ta'mirlash marshrut texnologiyasi

Dvigatelning ishonchliligi ko'proq moylash tizimiga kiruvchi birikmalarning ishga yaroqliligiga va qo'llanilayotgan moyning sifatiga bog'liq bo'ladi.

Moy nasosining texnik holati uning yetaklovchi valigining nominal aylanish chastotasi va ishchi bosimdagi ish unumi, hamda saqlash klapanining ochilish bosimi bilan baholanadi. Moy nasosining asosiy nuqsonlari: detallarning yeyilishi (4-rasm), shesternyalar va korpus devorlari bilan bilan nasos qopqog'i orasidagi zazorning kattalashishidan iborat bo'lib, bu esa ish unumini kamaytirishga, Shuningdek reduksion klapan germetikligining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Shu boisdan nasos sirti yuvilgandan keyin qismlarga ajratish oldidan maxsus stendda moy uzatish miqdoriga sinaladi va zarur bo'lsa buzuqliklar bartaraf etiladi, Shuningdek reduksion klapan rostlanadi. Agar nasosning moy uzata olish xususiyatini Shu usul bilan tiklashga erishib bo'lmasa, ular quyidagicha remont qilinadi.



1,2,3,4- korpusning yeyilish joylari; 5,6- qopqoqning yeyilish joylari; 7- vtulka va valiklarning yeyilish joyi.

4-rasm. Moy nasosi ishqalanish yuzalarining yeyilish joylari

Nasos qismlarga ajratilib, detallar issiq MS-8 preparati yoki tuz eritmasi quyilgan vannada yuviladi (qaynatiladi). So'ng detallar yaroqli-yaroqsizga

ajratiladi. Yaroqli shesternyalar va nasos korpusini komplekslashga yo'l qo'yilmaydi.

Nasos detallarini tiklash texnologik jarayoni qator operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Kul rang cho'yan SCH 15—32 dan tayyorlangan nasos korpusida quyidagi nuqsonlar bo'lishi mumkin: darzlar, sinishlar; qopqoqning tegib turish yuzasining tob tashlashi; shtiftlar uchun mo'ljallangan teshiklarning yeyilishi; rezьbaning yeyilishi; vtulkalar va vtulkalar uchun mo'ljallangan teshiklarning yeyilishi; shesternyalar uchun mo'ljallangan uyalarning yeyilishi.

SHesternya uchun mo'ljallangan teshiklar sirtlaridan biri, shesternyalar vali va o'qi singanda va darz ketganda, Shuningdek saqlash klapanining korpusi darz ketganda nasos korpusi yaroqsizga chiqariladi.

Korpusdagi darzlar korpusni oldindan 600...700°S temperaturagacha qizdirib, OZCH-2, PANCH-11, TSCH-ZA bimetall elektrodi yoki B markali cho'yan chiviq bilan payvandlanadi.

Nasosni blokka mahkamlash flanetsi yoki kronshteynining sinig'i ham korpusni avval qizdirib, OZCH-2, TSCH-ZA, PANCH-11 elektrodleri bilan yoki B markali cho'yan chiviq bilan payvandlanadi. Ishlov berilgan sirtlardagi payvand chok sirt bilan baravar qilib tozalanadi.

Nasos qopqog'ining tegib turish yuzasi va boshqa yotqizish tekisliklarining tob tashlashi tekshirish plitasida shchup yordamida tekshirilib, tokarlik stanogida yo'nib yoki frezalab bartaraf etiladi.


Shtiftlar yoki shesternya o'qlari uchun mo'ljallangan teshiklar yeyilganda ular katta o'lchamgacha razvyortkalanadi va yangi tayyorlangan shtiftlar yoki o'qlar qo'yiladi.

Saqlash klapani uyasining zichlash yuzasi zenkovkalab tozalanadi va stakan shaklida yasalgan klapan uyaga pritirlanadi.

Eyilgan sharikli klapan yangisiga almashtiriladi va yaxshi tegib turishi uchun sharik uyaga ustqo'yma orqali bolg'acha bilan sekin urib qo'yiladi.

Vtulkalar uchun mo'ljallangan teshiklar katta o'lchamga moslab razvyortkalanadi, yeyilgan vtulkalar esa yangisiga almashtiriladi. Bronza vtulkalar o'rniga cho'yan vtulkalar yasab qo'yishga ruhsat etiladi.

Shesternyalar uchun muljallangan uyalar detalni oldindan qizdirib, OZCH-2 elektrodleri yoki B markali cho'yan chiviq bilan suyuqlantirib qoplab tiklanadi va keyin normal o'lchamgacha yo'niladi. Uyani elektrolitik usulda ruxlab yoki temirlab tiklash mumkin. Biz uyani epoksidli smolaga quyidagi 1-jadvalda keltirilgan kukunsimon materiallardan biri yoki ularning aralashmasini qo'shib maxsus tarkib hosil qilib, uni nasos korpusining ichki yeyilgan yuzasiga qoplash orqali tiklashni tavsiya etamiz. Tarkib uya devorlariga 1...2 mm qalinlikda surkaladi va maxsus juvalar bostirib ishlov beriladi (5-rasm). Epoksidli tarkib qotgandan so'ng normal o'lchamgacha yo'nib kengaytiriladi. Keyingi vaqtda elektr uchquni bilan ishlov berib va shesternya tishi balandligi bo'yicha metall kukunini kontakt payvandlab qoplash orqali tiklash keng qo'llanila boshladi.



1-tarkib; 2-juva

**5-rasm. Moy nasosi korpusiga epoksidli tarkibni juva yordamida
qoplash sxemasi.**

Kul rang cho'yandan yasalgan nasos qopqog'i shesternyalar toretsiga tegib turadigan yuzasi bo'ylab yeyiladi; bu sirt tob tashlashi ham va darz ketishi ham mumkin. Yeyilgan va tob tashlagan yuza yeyilish izlari ketguncha yo'niladi. Ish yuzasining g'adir-budurligi 6- klassdan past bo'lmasligi, yuzaning yetakchi

shesternya valigi uchun teshikka nisbatan tepishi ko'pi bilan 0,06 mm bo'lishi lozim. Agar yuza yo'nilgan bo'lsa, u kapron ishlatib soxta suyuq qatlam bilan o'stiriladi va keyin yassi - jilvirlash stanogida jilvirlanadi.

Yo'l qo'yilgandan ortiq darz ketgan, singan yoki yeyilgan qopqoq yaroqsizga chiqariladi.

Odatda, po'lat 45 dan yasalgan yetakchi shesternya valigida (vtulkalar va shlitslarga tegib turish sirti, agar bor bo'lsa, HRC 45...50 qattqlikkacha YuCHT da toblangan bo'ladi) quyidagi nuqsonlar bo'lishi mumkin: vtulka osti sirtining yeyilishi, shlitslar va shponka pazining yeyilishi, egilishi, darz ketishi va sinishi.

Eyilgan yuza sovitish suyuqligi ishlatib prujina simi bilan tebranma yoy yordamida suyuqlantirib qoplab, Shuningdek plazmaviy suyuqlantirib qoplab yoki xromlab tiklanadi va keyin unga nominal o'lchamga moslab ishlov beriladi. Ishlov berilgan yuzaning g'adir-budirligi kamida 7-klass, qattqligi kamida HRC 45 va tepishi ko'pi bilan 0,02 mm bo'lishi kerak. Ba'zan o'stirilgan yuzaga katta o'lchamga moslab ishlov beriladi, yeyilgan vtulkalar esa katta o'lchamgacha razvyortkalanadi. Yeyilgan shlitslar suyuqlantirib qoplanadi va Shu joyning o'zida yangisi frezalanadi. SHponka pazi shponkaning katta o'lchamiga moslab frezalanadi yoki E50 elektrodi bilan butkul suyuqlantirib qoplanadi va boshqa joydan eskisiga nisbatan 90° yoki 180° burchak ostida yangi paz frezalanadi.


SHesternyalar tishlari darz ketganda, singanda, uvalanib tushganda, tishlar eni va balandligi bo'ylab yeyilganda, Shuningdek shesternyalar balandligi bo'yicha texnik shartlar yo'l qo'yiladigai darajadan ortiq yeyilganda yaroqsizga chiqariladi.

Tirnalgan va qirilgan torets yuzalar plitada donadorligi 6...5 bo'lgan jilvirlash qog'ozi bilan jilvirlanadi yoki pritirlanadi, SHesternyalar toretslarining teshiklar o'qiga nisbatan tepishi ko'pi bilan 0,03 mm bo'lishiga yo'l qo'yiladi. SHesternyalar balandligi bo'yicha yeyilganda qopqoqning tegib turish tekisligi jilvirlab korpusdagi uyalar chuqurligidan xuddi Shu o'lchamda kamaytiriladi.

Yig'ish va sinash. Moy nasosi ma'lum ketma-ketlikda, taxminan turli markadagi dvigatelъ nasoslari bilan bir xil usulda yig'iladi. Vtulkalar


